

**INGLIZ TILIDA QO'LLANILADIGAN GODONIMLARNING
PEREFRAZALAR YORDAMIDA IFODALANISHI
VA ULARNING ETIMOLOGIYASI
(LONDON KO'CHA NOMLARI MISOLIDA)**

Durdona TURDALIYEVA

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ikkinchi chet tili kafedrası o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Quyidagi maqola ingliz va o'zbek tillarida qo'llaniladigan godonimlarning kelib chiqish tarixi va perefraziologik birliklarda ifodalanishini yoritib beradi. London shahrining xammaga ma'lum va mashxur bo'lgan ko'chalari nomlarining etimologiyasini o'rganish bilan bir qatorda, ingliz tilida manzilgih nomlari xaqida ma'lumotlar berish va ularning o'zbek tilidagi tarjima variantlarini xam izohlab ketish maqsad qilingan.*

***Kalit so'zlar:** godonim, odonim, etimologiya, shoh ko'cha, tor ko'cha, manzilgoh, irmoq.*

O'zbek va ingliz tillaridagi godonimlar (ko'cha nomlari) tuzilishi, shakli va kelib chiqish tarixi jihatlaridan bir biriga juda o'xshash hisoblanadi. Ularning perefrazalar orqali ifodalanish yo'llari va tasniflari xar bir nomda turlicha axamiyat kasb etadi. Qadim zamonlardan beri joy nomlari shu joyda yashab o'tgan shaxslarga nisbatan, ularni kasb kori va turmush tarzidan kelib chiqqan bo'lsa, boshqalari shu joyning geografik xususiyatlari, joylashuvi, iqlimi va hokazolardan kelib chiqib atalgani atamashunoslik bilimlaridan ma'lumdir. Ushbu maqola London shahri godonimlarining perefrazalar orqali ifodalanishi, nomlanish tarixi va etimologiyasi xaqida ba'zi fikrlarni yoritib beradi. (Maqolada ko'cha nomlari alfavit tartibida joylangan)

Xammaga ma'lum va mashxur london ko'chalaridan biri bo'lmish **“Aldgate”** - Aldgeyt nomi “Eski darvoza” degan ma'noni anglatib, tarixda Londonga kiradigan oltita Rim darvozalaridan biri bo'lgan va bu darvoza 1762- yilda vayron qilingan. Lekin perefraziologik birlik sifati bu nom saqlanib qolgan.

“Aldwych”- Aldvik - “Eski qishloq” degan ma'noni bildiradi. Yarim oy shaklidagi bu yo'l 1905 yilda shimolga, Oliy Xolborngacha bo'lgan xarobalarni tozalashdan so'ng ochilgan. U Aldvik (Eski qishloq), keyin esa Aldevich nomi bilan tanildi va bu hududdan

o'tadigan yo'llardan biri oxir-oqibat Aldvich Leyn edi. Tarixchi va London okrug kengashining kotibi Jorj Gomme tufayli bu nom yangi yo'l uchun qayta ishlatilgan.

“Artillery Row”-Artileri row “Artilleriya qatori” degan ma'noni anglatib bu nom xam bevosita tarixda ayni xududda sodir bo'lgan ishlar bilan bo'liq. Bu hudud Yelizaveta I davrida artilleriya amaliyoti uchun ishlatilgan bo'lib, xaligacha ayni ko'cha shu nom bilan atalib kelinadi.

“Bayswater” - Beysvoter (Beyardning sug'orish hududi) ma'nosini anglatgan bo'lib, ayni xududlarda joylashgan buloqlarga egalik qilgan shaxs bilan bevosita bog'liq ya'ni shu xududda yashagab Beyardlar oilasi nomi bilan.

“Blackfriars Bridge” - Rohiblar ko'prigi deb atalishiga asosiy sabablardan biri quyidagicha, 1278-yilda Dominikan monastiriga (1221-yilda asos solingan va Shou Leynda joylashgan) Temza daryosining shimoliy qirg'og'idan yer berigan. Rohiblar Qora Friars sifatida tanilgan va shuning uchun monastir atrofidagi hudud vaqt o'tishi bilan bu nomga ega bo'lgan. Bu 1538-yildagi parchalanishgacha davom etdi. XV asrda bu hududda mahalliy loylardan foydalangan holda g'isht va kafel ishlab chiqarish boshlangan.

“Chancery Lane” - Kantsler tor ko'chasi (lane-tor ko'cha, so'qmoq manosini beradi), bu nom 1377 yilda qabul qilingan. Lord-kansler idorasining rasmiy hujjati, Kantsler sudining Rollari (keyinchalik buzib kantslerlikka aylantirilgan) 1920-yillardan boshlab bu yerda saqlangan.

“Cheapside” - “Bozor taraf” qadimgi inglizcha bozor “cheap” so'zidan olingan. Aynan shu ko'cha bo'ylab London shahridagi asosiy mahsulot bozorlaridan biri XI asrda joylashgan edi. Ikkinchisi, sharqda, Eastcheap edi. Aynan shu ko'cha nomiga O'zbek godonimlari orasida ekvivalent qilib “Bozorboshi” ko'cha nomini keltirish mumkin. Farg'ona viloyati ko'chalaridan biri aynan “Bozorboshi” nomi bilan atalgan.

“Clerkenwell Road” - Klerkenvell yo'li “Amaldorlar ko'chasi” bu ko'cha nomi xam bevosita shu joyda yashab o'tgan maxalliy axoli kasb-koridan kelib chiqqan degan tahminlar bor.

“Conduit Street” - “Quvur ko’cha” (suv o’tkazgich) degan ma’noni anglatadi. Ushbu ko’cha London shahriga tegishli bo’lgan va Conduit Mead Estate nomi bilan tanilgan yer maydonida qurilgan. Bu mulk XV asrga borib taqaladi va shaharni suv quvurlari orqali etkazib berishni himoya qilish uchun sotib olingan.

“Covent Garden” - “Monastr bog’i”, u tugatilgan monastirning bog’i bo’lganligi sababli shunday nomlangan. Bu hududdagi yer Vestminster Abbeyga tegishli bo’lgan. Ko’pincha yaylov, markaziy qismi bog’ sifatida devor bilan o’ralgan xoda bo’lgan. Monastriya tarqalgandan keyin yer qirol tomonidan tortib olindi va bu ko’chaga asos solgan Bedford grafiga berilgan.

“Downing Street” - “Daun ko’chasi” 1680-yillarda asos solingan bo’lib bevosita shu davrda bosh vazir bo’lgan Jorj Dauning nomi bilan atalgan. Kocha nomlarining bu usulda nomlanishiga misol qilib, Toshkent shaxridagi 1974 yilda O’zbekiston SSR Komunistik partiyasi rahbari bo’lgan “Sharof Rashidov” nomi bilan ataladigan ko’cha nomini misol qilish mumkin

“Fleet Street” - “Flet ko’chasi” shubhasiz, Londonning yo’qolgan daryolarining eng mashhuri bo’lgan Flot daryosi bilan boliq. Xempsted-Xitdagi hovuzlardan Blekfriarsdagi Temzagacha oqadi. Bu nom anglo-sakson tilidan kelib chiqqan bo’lib, suv oqimini anglatadi. U 1660-yillarning boshlarida hozirgi Xolborn viyadukiga qadar davom etishi mumkin edi, ammo unga tashlangan axlat miqdori tufayli tezda pasayib ketdi. Nihoyat, 1766-yilda u to’liq qurib bitgan va faqatgina shu nom bilan atalgan ko’cha qolgan.

“Great Scotland Yard” - “Buyuk Shotland yeri” ma’nosini anglatadi. Bu joy nomi tarix bilan uzviy bog’liqdir. Sharing Kross va Vestminster (hozirda Uaytxoll nomi bilan tanilgan) o’rtasidagi yo’lda Shotlandiya qiroli parlamentga tashrif buyurganida yashash joyiga ega bo’lishi uchun Angliya qiroli tomonidan Shotlandiya qirollaridan biriga yer yashash uchun berilgan. Yillar o’tib bu joy 1829-yilda Metropolitan politsiyasining shtab-kvartirasiga aylandi va politsiya shtab-kvartirasi binolarni ko’chirgani uchun Skotland-Yard nomi ikki marta o’zgartirildi.

“Holborn” - Xoleburn - Fleet daryosining irmog'i yoki Fleet daryosining pastki qismi (manbalar turlicha). Ism “kovakdagi oqim” degan ma'noni anglatadi (so'zma-so'z, ichi bo'sh oqim).

“King's Cross” - “Qirol xochi” degan ma'noni anglatadi. King's Cross temir yo'l stantsiyasi 1830 yildan 1845 yilgacha qirol Jorj IV yodgorligi o'rnatilgan chorraha yonida joylashgan. U Grey's Inn Road, Pentonville Road va New Road chorrahasida qurilgan, keyinchalik u Euston Roadga aylangan. U oltmish fut balandlikda va tepasida qirolning o'n bir futlik haykali o'rnatilgan va Uolter Tornberi tomonidan “bema'ni haykal bilan toj kiygan kulgili sakkizburchak struktura” deb ta'riflangan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, o'zbek va ingliz godonimlarining etimologiyasi, ularning tuzilishi va nomlanishida o'xshash jihatlar mavjud. Bundan tashqari nomlarni perefrazalar orqali ifodalanishi xam xar ikki tilde yaqqol axamiyat kasb etadi. Perefrazalar orqali ifodalangan joy nomlari klassifikatsiyasi tilshunoslikda va tarjimashunoslik bugungi kunda dolzarbmasalalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Egorova L. V. K voprosu izucheniya godonimov v sovremennoj paradigme lingvisticheskix issledovanij / L. V. Egorova // Vestnik Chuvashskogo universiteta. – 2018. – № 2. – S. 224–233.
2. Korneva V.V. Toponimicheskie issledovaniya v novej nauchnoj paradigme//Vestnik Voronezhskogo gosudarstvennogo universiteta. Ser. Lingvistika i mezhkulturnaya kommunikaciya. 2016. № 1. S. 150–154
3. Kyuregyan A. L. Semiotika kultury i kulturnye kody /A. L. Kyuregyan // Vestnik Vyatskogo gosudarstvennogo universiteta. – 2012. – № 4. – S. 79–81].
4. Shmelyova T.V. Sovremennaya godonimiya: semantika i semiotika // Lingvisticheskoe kraevedenie: mezhvuz. sb. nauch. tr. Perm, 1991. S. 33–37.